XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 24-sentabr VII-17-108-5-0-K/25 Navoiy viloyati

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi ta’minoti, kanalizatsiya xizmatlari tariflarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi O‘RQ-784-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi “Kommunal xizmatlar ko‘rsatish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”ga 194-sonli Qarori, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 4-iyundagi 04-02-05/04/6059-sonli, 2025-yil 13-avgustdagi 04-02-05/04/8667-sonli xatlari, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 12-avgustdagi 01-12/20-11-38/1994-sonli xulosasi, viloyatda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ tomonidan aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, kanalizatsiya xizmatlari ko‘rsatish xizmatlari ahvolini yanada yaxshilash hamda bildirilgan taklif, fikr va mulohazalarni inobatga olgan holda, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 16^2 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi O‘RQ-784-sonli Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 194-sonli qarori ijro uchun, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ bosh direktor o‘rinbosari J. Xasanovning ichimlik suvi ta’minoti, oqova suv xizmatlari tariflari yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi ta’minoti, kanalizatsiya xizmatlari (shuningdek, texnik suv) uchun taklif narxlari (tariflar) ilovaga muvofiq tasdiqlansin

3. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 15-martdagi VI-69-29-5-0-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Sh. Raubayeva), viloyat teleradiokompaniyasi (A. Muqimov), “Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalari tahririyati davlat korxonasi (B. Umarov)ga olib borilayotgan ishlarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingandan boshlab, 15 kundan so‘ng kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimi o‘rinbosari (E. Kamolov) hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (N. Isoqov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi ALIYEV G‘OFIR QUVATOVICH

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2025-yil 24-sentabrdagi
VII-17-108-5-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati”
aksiyadorlik jamiyati tomonidan koʻrsatiladigan ichimlik suvi ta’minoti, kana lizatsiya xizmatlari (shuningdek, texnik suv)uchun
TAKLIF NARXLARI (TARIFLAR)

so‘mda

T/r	Mahsulot nomi	hajmi	Narxi (QQS siz)		
			aholi	budjet tashkilotlari	boshqa ulgurji
	Markaziy kon boshqarmasi (Zarafshon shahri)				
1	Ichimlik suvi	1 m^3	7 300	10 000	10 000
2	Texnik suv	1 m^3	6 950	6 950	6 950
	Shimoliy kon boshqarmasi (Uchquduq tumani)				
1	Ichimlik suvi	1 m^3	3 500	10 000	10 000
2	Texnik suv	1 m^3		8 000	8 000
3	Oqova suv	1 m^3		470	470
4	Oqova suv (3-sonli GMZ)	1 m^3		9 800	9 800